

## **“Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdagи “Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-141-son qarorning 18-bandи ijrosini ta’minlash bo‘yicha tumanimizda 4 ta mahallada infratuzilmani yaxshilash uchun jami **54 mln 204 mln so‘mlik** loyiha ishlab chiqildi.

Jumladan:

**Saroy mahallasida** 8,6 km yo‘llarni asfalt qoplama bilan ta’mirlash uchun 5 mln 850 mln so‘m mablag‘, 46-sonli 340 o‘rinli umumta’lim maktabini rekonstruksiya qilish uchun 1 mln 500 mln so‘m mablag‘, “Hakimqul” oilaviy shifokorlik punktini rekonstruksiya qilish mavjud eski binoni buzib o‘rniga 75 qatnovli yangi bino qurish uchun 2 mln 500 mln so‘m mablag‘ va 20-sonli 180 o‘rinli maktabgacha ta’lim muassasasini rekonstruksiya qilish uchun 6 mln 300 mln so‘m mablag‘, elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish 2 dona transformator va 7,1 km kabel tortish uchun 1 mln 194 mln so‘m mablag‘, 1 km piyodalar yo‘lakchasi qurish uchun 350 mln so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

**Mirzo Olim mahallasida** qo‘sishimcha 3 ta transformator o‘rnatish uchun 300 mln so‘m mablag‘, 8,1 km elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish uchun 1 mln 134 mln so‘m mablag‘, 5 km ichki yo‘llarni asfalt qoplama bilan ta’mirlash uchun 3 mln 500 mln so‘m mablag‘, 10-sonli 120 o‘rinli maktabgacha ta’lim muassasasini rekonstruksiya qilish uchun 3 mln 150 mln so‘m mablag‘ hamda 1 km piyodalar yo‘lakchasi qurish uchun 350 mln so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

**Sardoba mahallasida** 14,2 km yo‘llarni asfalt qoplama bilan mukammal ta’mirlash uchun 9 mln 940 mln so‘m mablag‘, elektr ta’mintini yaxshilash uchun qo‘sishimcha 3 dona transformator o‘rnatish uchun 300 mln so‘m mablag‘, 16 km elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish uchun 2 mln 240 mln so‘m mablag‘, 6-sonli 780 o‘rinli maktabni rekonstruksiya qilish uchun 4 mln 620 mln so‘m mablag‘, 2,1 km ichimlik suvi tarmog‘ini ta’mirlash uchun 350 mln so‘m mablag‘ hamda 1 km piyodalar yo‘lakchasi qurish uchun 350 mln so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

**Amirobod mahallasida** 6,5 km ichki yo‘llarni asfaltlash uchun 4 mln 225 mln so‘m mablag‘, qo‘sishimcha 3 ta transformator o‘rnatish uchun 300 mln so‘m mablag‘, 5,4 km elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish uchun 746 mln so‘m mablag‘, 1,3 km ichimlik suvi tarmog‘ini qurish uchun 200 mln so‘m mablag‘, 1,9 km ichki ko‘chalarga piyodalar yo‘laklarini qurish tungi yoritish chiroqlarini o‘rnatish uchun 665 mln so‘m mablag‘, 12-son maktab hududidan

90 o‘rinli yangi maktabgacha ta’lim muassasasi qurish uchun 4 mlrd 140 mln so‘m mablag‘lar ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Bu loyiha 2025-2027-yillarda amalga oshirilishi reja qilingan bo‘lib, hozirgi kunda ijtimoiy soha obyektlarini loyiha osti hujjatlari tayyorlanmoqda.